

UDK: 619:636.31:616:616-084

DISPANSERLASHDA SOVLIQLAR VA QO'ZILAR QONINING GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLARI.

Asqarov S.S. - assistent, v.f.b.f.d.

Yunusov X.B. - professor

Bakirov B.B. - professor

Ro'ziqulov N.B. - dotsent

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada dispanserlashda sovliqlar va qo'zilar qonining Eritrotsitlar, Gemoglobin, Umumiy oqsil, Glyukoza, Keton tanachalari, Ishqoriy zahira, Gematokrit, va qondagi o'zgarishlari bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описаны изменения эритроцитов, гемоглобина, общего белка, глюкозы, кетоновых тел, щелочного резерва, гематокрита, а также крови ягнят и ягнят на откорме.

Annotation. This article describes changes in red blood cells, hemoglobin, total protein, glucose, ketone bodies, alkaline reserve, hematocrit, and blood of lambs and finishing lambs.

Kalit so'zlar. Qonda eritrotsitlar va leykotsitlar soni (Goryayev usuli), Glyukoza, (Glyukometr), Keton tanachalari, (Ketometr), gemoglobin (Sali usuli), umumiy oqsil (Refraktometrli usul) va ishqoriy zahira (Rayevskiy usuli) ushbu kursatkichlar miqdorlari aniqlandi.

Ключевые слова. Определяли количество эритроцитов и лейкоцитов в крови (метод Горяева), глюкозу (Глюкометр), кетоновых тел (Кетометр), гемоглобина (метод Сали), общего белка (метод Рефрактометра) и щелочного резерва (метод Раевского).

Key words. The number of erythrocytes and leukocytes in the blood (Goryaev method), glucose (Glucometer), ketone bodies (Ketometer), hemoglobin (Sali method), total protein (Refractometer method) and alkaline reserve (Raevsky method) were determined.

Kirish. Dispepsiya oqibatida qo'zilarda ich ketish, ishtahaning susayishi, tezda oriqlab ketish oqibatida kasal hayvon tezda nobud bo'ladi, Shu boisdan, kasallikni tezkor davolash katta ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz sharoitidagi qo'zilar dispepsiyasiga qarshi samarali davolash chora-tadbirlarining yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4576-sonli hamda 2022-yil 8-fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-121-sonli qarorlarida belgilab berilgan ustivor vazifalarning bajarilishida, xususan, chorvachilikda qo'ychilik tarmog'ining barqaror


rivojlanishiga qo'zilar orasida ko'p uchraydigan dispepsiya kasalligi katta to'siqlardan biri bo'lib kelmoqda.

Material va usullar. Tajribalar 2021-2024-yillar davomida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako'lchilikka ixtisoslashgan "Olg'a" MCHJ, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi "Bobur Murodalievich XK"ga qarashli qo'ychilik fermer xo'jaligi va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi "Qum kamar" fermer xo'jaligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysi sharoitida olib borildi.

Demak, dispanserlash natijalari shuni ko'rsatdiki, qorako'l sovliqlarda modda almashinuvining buzilishlari asosan qish va bahor oylarida paydo bo'ladi. Bunday buzilishlar orasida asosan oqsil-uglevod almashinuvining buzilishlari ustuvorlik qiladi va bug'ozlikning chuqurlashishi bilan bunday buzilishlar yanada kuchliroq namoyon bo'lib boradi. Oqsil-uglevod almashinuvi buzilishlari paytida sovliqlarda oriqlash, taxikardiya, hansirash, oshqozon oldi bo'limlarining gipo va atoniyasi, lizuxa, shilliq pardalarning sarg'ayishi, jigar sohasining kattalashishi va og'riq sezishi, gipoproteinemiya, gipoglikemiya, atsidoz holat, gipoureliyadan iborat ham oqsil uglevod almashinuvi buzilishlariga ham jigar funksional holatining buzilishlariga xos belgilar kuzatildi.

1 - rasm.

Dispanserlashda sovliqlar qonining morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarining mavsumiy dinamikasi



Dispanserlashda sovliqlar qonining morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari mavsumiy dinamikasi (1 - rasm) o'ziga xos o'zgarishlarni namoyon etdi. Xususan, qondagi eritrotsitlar sonining eng yuqori miqdori kuz (7,92 mln/mkl) va eng kichik miqdori qish (7,32 mln/mkl) faslida kuzatildan bo'lsada, qonida eritrotsitlar soni past bo'lgan hayvonlar sonining eng ko'p bo'lishi (33,4%) bahor va eng past bo'lishi (13,3%) kuz faslida kuzatildi. Qondagi gemoglobin miqdorining eng yuqori miqdori kuz (95,7 g/l) va eng kichik miqdori qish (90,8 g/l) faslida kuzatilgan bo'lsada, qonda gemoglobin miqdori past bo'lgan hayvonlar sonining eng ko'p bo'lishi (20 %) qish va eng past bo'lishi (6,6 %) kuz faslida kuzatildi.

Qondagi umumiy oqsil miqdorining eng yuqori miqdori kuz (57,7 g/l) va eng kichik miqdori qish (54,5 g/l) faslida kuzatilgan bo'lsada, qonda umumiy oqsil miqdori past bo'ldan hayvonlar sonining eng ko'p bo'lishi (100 %) qish va eng past bo'lishi (66,6 %) kuz faslida kuzatildi.

Qondagi glyukoza miqdorining eng yuqori miqdori kuz (2,06 mmol/l) va eng kichik miqdori qish (2,01 mmol/l) faslida kuzatilgan bo'lsada, qonida glyukoza miqdori past bo'lgan hayvonlar sonining eng ko'p bo'lishi (100 %) qish va eng past bo'lishi (66,6 %) kuz faslida kuzatildi.

Qondagi keton tanachalari miqdorining eng yuqori miqdori qish (0,044 g/l) va eng kichik miqdori kuz (0,011 g/l) faslida kuzatilgan bo'lsada, qonda keton tanachalari miqdori yuqori bo'lgan hayvonlar sonining eng ko'p bo'lishi (40 %) qish va eng past bo'lishi (20 %) kuz faslida kuzatildi.

Demak, mavsumiy dinamika ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, sovliqlar qonidagi gemoglobin, umumiy oqsil va glyukoza miqdorlari qish faslidan boshlab bahor, yoz va kuz fasllari davomida bir tekisda oshib borsa, keton anachalari miqdori, aksincha, ishonchli tarzda ($P 0,001$) oshib boradi.


Eritrositlar miqdori bo'yicha o'zgarishlar esa yil mavsumlari bo'yicha beqaror o'zgarishlarni namoyon etishi qayd etildi.

Demak, dispanserlash natijalari shuni ko'rsatdiki, qorako'l sovliqlarda modda almashinuvining buzilishlari asosan qish va bahor oylarida paydo bo'ladi. Bunday buzilishlar orasida asosan oqsil-uglevod almashinuvining buzilishlari ustuvorlik qiladi va bug'ozlikning chuqurlashishi bilan bunday buzilishlar yanada kuchliroq namoyon bo'lib boradi. Oqsil-uglevod almashinuvi buzilishlari paytida sovliqlarda oriqlash, taxikardiya, hansirash, oshqozon oldi bo'limlarining gipo va atoniyasi, lizuxa, shilliq pardalarning sarg'ayishi, jigar sohasining kattalashishi va og'riq sezishi, gipoproteinemiya, gipoglikemiya, atsidoz holat, gipouremiyadan iborat ham oqsil uglevod almashinuvi buzilishlariga ham jigar funksional holatining buzilishlariga xos belgilar kuzatildi.

Bunday belgilarning kuzda asosan yashirin tarzda rivojlanishi, qish va bahor oylarida esa ayniqsa, sovliqlar bug'ozligining ikkinchi yarmidan boshlab, ularning klinik namoyon bo'lishi aniqlandi.



Qo'zilar qonidagi gemoglobinni aniqlash



Qo'zilar qonida umumiy oqsilni aniqlash

1-jadval.

Kasal qo'zilaridan olingan qon namunalarini fizik-kimyoviy hamda morfo-biokimyoviy tekshirish natijalari

T/R	Ko'rsatkich	Kasallikning kechish davri, soat			
		1-12	12-24	24-36	36-72
1	Eritrotsitlar, mln/mkl	6,30±0,10	6,50±0,10	6,90±0,10	6,5±0,10
2	Gemoglobin, g/l	98,8±0,12	92,2±0,9	80,4±0,42	68,8±0,11
3	Umumiy oqsil, g/l	65,6±0,11	66,6±0,2	68,8±0,7	68,2±0,9
4	Glyukoza, mmol/l	2,3±0,08	2,1±0,07	1,83±0,05	1,60±0,04
5	Gematokrit, %	37,8	38,5	40,4	48,8
6	pH	7,3	7,1	7,0	6,5
7	Ishqor. zaxira, mekv/l	5,88±0,14	5,20±0,12	4,10±0,16	3,22±0,10
8	IgG, mg/ml	12,2	10,5	10,1	7,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dispepsiya paytida qondagi eritrotsitlar soni va umumiy oqsil miqdori kasallik davomida sezilarli o'zgarishlarga uchramadi. Gemoglobin (tajriba boshidagi 98,8±0,12 g/l dan uning oxiriga kelib 68,8±0,11 g/l gacha), glyukoza (tajriba boshidagi 2,3±0,08 mmol/l dan uning oxiriga kelib 1,60±0,04 mmol/l gacha), pH-ko'rsatkichi (tajriba boshidagi 7,3 dan uning oxiriga kelib 6,5 gacha), Ishqoriy zaxira (tajriba boshidagi 5,88±0,14 dan uning oxiriga kelib 3,22±0,10 mekv/l), IgG (tajriba boshidagi 12,2 dan uning oxiriga kelib 7,6 mg/ml gacha) miqdorlarining bir tekisda pasayib borishi, gematokrit ko'rsatkichining esa muntazam oshib (kasallik boshidagi o'rtacha 37,85% dan uning oxiriga kelib 48,8% gacha) oshib borishi qayd etildi.

Qo'zilar dispepsiyasi paytida qonda yuz beradigan o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda xulosa chiqarish mumkinki, dispepsiya paytida kasal qo'zilar qonida gemoglobinning 68,8±0,11 g/l gacha, glyukozaning 1,60±0,04 mmol/l gacha, pH-ning 6,5 gacha, ishqoriy zaxiraning 3,22±0,10 mekv/l gacha, IgG ning 7,6 mg/ml gacha pasayishi, gematokrit ko'rsatkichining esa 48,8% gacha ko'tarilishi kuzatiladi.

Kasal qo'zilar qondagi o'zgarishlar dinamikasi 3.4.1-rasmda yanada aniq ifodalangan. Bunda, kasallik patogenezida gemoglobin, glyukoza, pH, ishqoriy zaxira va IgG ning ishonchli tarzda ($P \leq 0,001$) pasayib borishi, gematokrit ko'rsatkichining esa 48,8% gacha (37,5-40,) ko'tarilishi qayd etildi.

Qonda kuzatilgan morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha yuz bergan bunday o'zgarishlarni diareya, suvsizlanish, toksemiya va modda almashinuvining buzilishlari bilan izohlash mumkin.

Xulosa:

1. Dispanserlashda sovliqlar qonining morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari yil fasillari bo'yicha berilgan bo'lib Eritrositlar soni, gemogloben hamda keton tanachalar miqdorlari qisman o'zgarishlarga uchragan bo'lsada meyor ko'rsatkichlarga yaqin bo'ldi. Umumiy oqsil va glyukoza miqdorlari meyardan past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

2. Dispepsiya paytida kasal qo'zilar qonida gemoglobinning 68,8±0,11 g/l gacha, glyukozaning 1,60±0,04 mmol/l gacha, pH-ning 6,5 gacha, ishqoriy zaxiraning 3,22±0,10 mekv/l gacha, IgG ning 7,6 mg/ml gacha pasayishi, gematokrit ko'rsatkichining esa 48,8% gacha ko'tarilishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ -4576-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-121-sonli qarori.
3. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi", 2021. – B. 70-81.
4. Bakirov, B., Daminov, A. S., Ro'ziqulov, N. B., Toylaqov, T. I., & Saydaliyev, D. (2019). Qurbonov Sh. Boboyev OR, Xo'djamshukurov A. Hayvonlar kasalliklari. Ma'lumotnoma. Ikkinchi nashri. Samarqand, 344-347.
5. Практикум по внутренним болезням животных / Под общ. ред. Щербакова Г.Г., Яшина А.В., Курдеко А.П., Мурзагулова К.Х.: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2021. – С. 543.
6. Петрянкин Ф.П., Петрова О.Ю. Болезни молодняка животных: Учебной пособие для СПО. – Санкт-Петербург: Лань, 2021. – С. 352.
7. Бакиров, Б., & Рузикулов, Н. Б. (2017). Причины и ранняя диагностика нарушений метаболизма и дистрофии печени у коров в республике Узбекистан. *Ветеринария*, (5), 49-53.
8. Baxtiyar, B., Nuriddin, R., Oybek, B., & Xokimjon, K. (2017). Etiopathogenesis, hepatogenetic implications and early diagnosis of disorders of protein metabolism in productive animals in Uzbekistan conditions. *IJAR*, 3(2), 272-277.
9. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration*, 29(01), 2273.
10. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.
11. N Ruzikulov, S Askarov, N Rasulov, O Boboev. (2022). [Results of treatment of lambs dysepsepsy](#). *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей VIII Международной научно-практической конференции. Пенза, 2022.* 226-229.
12. Asqarov S.S., Yunusov X.B., Ro'ziqulov N.B. Qo'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari // Veterinariya meditsinasi. – 2023. №8. – 18-19 bet.
13. А.В.Манасян, Г.Р.Петоян, А.М.Шахбазян. “Активность ферментов пищеварительной системы у телят при диспепсии”. Армянская СХА, 2003.
14. Bradford P.Smith, David C. Van Metre, Nicola Pusterla. Large Animal Internal Medicine. Sixth Edition. ELSEVIER. Printed in the United States of America, 2020 by. - P. 1874.